

CHET TILINI O‘RGANISHDA YOZMA NUTQNING AHAMIYATI

Gulrux Qilicheva*SAMDCHTI Ikkinchi chet tillar kafedrası o‘qituvchisi***Usmonova Zebo***Ingliz tili filologiyasi 2-kurs talabasi*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola chet tilini o‘rganishda asosiy kompetensiyalardan biri yozma nutqni o‘zlashtirish masalalariga bog‘shlangan bo‘lib, unda chet tilini o‘rganayotgan talabalar uchun yozma nutq strategiyalari bilan bog‘liq muammolar o‘rganiladi. Yozma nutq chet tilini o‘rganayotgan talabalar uchun muhim hisoblanib, ushbu tilda ravon yozish imkonini beradi. Ushbu mahoratni rivojlantirish uchun talabalarga yaxshiroq yordam beradigan yozma nutq grammatika, lug‘at, mantiqiy fikrlash va og‘zaki nutqni bir vaqtning o‘zida rivojlantirish muhim ekanligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Grammatik elementlar, fe‘l shakllari, bog‘lovchilar, mantiqiy ketma-ketlik, lug‘at boyligi, kelishiklar.

Chet tilini o‘rganish jarayoni to‘rt asosiy kompetensiyani – tinglab tushunish, o‘qish, og‘zaki nutq va yozma nutqni – o‘z ichiga oladi. Ushbu ko‘nikmalarning har biri o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ulardan birining rivojlanishi boshqasiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shulardan biri bo‘lgan yozma nutq chet tilini puxta va tizimli ravishda egallashda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Yozish jarayoni insonning fikrlash qobiliyatini faollashtiradi, til elementlarini ongli ravishda qo‘llashga o‘rgatadi va o‘rganilayotgan tilni amaliy hayotga tatbiq etishga yordam beradi.

Chet tilini o‘zlashtirishda yozma nutqning quyidagi bosqichlari chet tilini o‘raguvchilar uchun muhim hisoblanadi.

1. Yozma nutq grammatik bilimlarni mustahkamlaydi.

Chet tilini o‘rganishda grammatik bilimlarni nazariy o‘zlashtirishning o‘zi kifoya qilmaydi. Ularni amalda qo‘llash, xatolarni ko‘rib, tahlil qilish va tuzatish jarayoni nihoyatda muhimdir. Yozish aynan shu imkoniyatni yaratadi. O‘rganilayotgan tilning zamonlari, fe‘l shakllari, kelishik va qo‘shimcha moslashuvlari, bog‘lovchilar, so‘z tartibi kabi grammatik elementlar har bir jumla qurilayotganda qayta-qayta mustahkamlanadi. Natijada grammatik bilimlar qisqa muddatli xotiradan uzoq muddatli xotiraga ko‘chadi va tabiiy malakaga aylanlanadi.

Grammatikani yozma nutqda mustahkamlash uchun **zamonlar, kelishuvlar, bog‘lovchilarni** ishlatish muhim hisoblanadi.

Misollar :

- **Présent zamoni :**

Je prends des cours de français parce que je veux voyager.

- **Passé composé :**

Hier, j’ai écrit un petit texte en français et j’ai appris de nouveaux mots.

- **Futur proche :**

Je vais améliorer mon niveau en écrivant chaque jour.

- **Bog‘lovchi bilan :**

- *J’écris souvent afin de mieux comprendre la grammaire.*

2. Lug‘at boyligini faol qo‘llash imkonini beradi

Yangi so‘zlarni yodlab olish – til o‘rganishning bir bosqichi. Ammo ularni to‘g‘ri kontekstda qo‘llay olish – haqiqiy bilimdir. Yozma mashqlar jarayonida o‘rganuvchi o‘z fikrini yanada boyroq va aniqroq ifodalash uchun yangi so‘zlar izlaydi, ulardan foydalangan sari ularni eslab qoladi va o‘z lug‘at boyligini kengaytiradi. Yozma matnlar o‘quvchini sinonimlar, antonimlar, frazeologizmlar va iboralar bilan muntazam ishlashga majbur qiladi, bu esa umumiy til kompetensiyasini sezilarli ravishda oshiradi.

Yangi so‘zlarni matnda qo‘llash lug‘atni faol qiladi.

Misollar :

- *Pour exprimer mes idées clairement, j’utilise des mots variés comme “pendant”, “toutefois”, “par conséquent”.*

- *Quand j’écris, j’apprends des synonymes : “important = essentiel”, “rapide = rapide, vite”.*

- *J’essaie d’employer des expressions comme “prendre une décision”, “avoir envie de”, “faire des progrès”.*

3. Mantiqiy va izchil fikrlashni shakllantiradi

Yozish jarayoni o‘quvchidan mavzuni rejalash, fikrlarni mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish, asosiy va ikkinchi darajali mazmunlarni farqlashni talab qiladi. Shu orqali shaxs atroflicha fikrlash, mulohaza yuritish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini izohlashni o‘rganadi. Mantiqiy fikrlashning rivojlanishi esa nafaqat yozma, balki og‘zaki nutq, bahs-munozara va taqdimot ko‘nikmalariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Reja bilan yozish, sabab–oqibatni ko‘rsatish mantiqiylikni oshiradi.

Misollar :

- **Kiruvchi gap :**

Tout d’abord, apprendre une langue demande de la patience.

- **Asosiy fikr :**

Ensuite, la pratique de l’écriture aide à organiser les idées.

- **Misollar bilan :**

Par exemple, je commence toujours par une introduction avant de développer mes arguments.

- **Xulosa :**

Enfin, écrire régulièrement permet d’améliorer progressivement son niveau.

4. O‘rganilayotgan tilni ongli ravishda o‘zlashtirishga yordam beradi

Ko‘pchilik til o‘rganuvchilar til materialini eshitib yoki o‘qib tushunsa-da, uni mustaqil ravishda qo‘llashda qiynaladi. Buning sababi shundaki, passiv bilim har doim ham faol bilimga aylanavermaydi. Yozma nutq esa o‘rganuvchini mavjud til bilimidan faol foydalanishga majbur qiladi. Bu jarayonda shaxs nafaqat so‘z va grammatikani, balki uslub, nutq madaniyati, til me‘yorlarini ham ongli ravishda o‘zlashtiradi.

Yozish tilni faollashtiradi.

Misollar :

- *Quand j’écris, je choisis consciemment les temps et les structures.*
- *J’essaie d’utiliser les nouveaux mots appris en classe dans mes phrases.*
- *En corrigeant mon texte, je comprends mieux mes erreurs.*

5. Uzluksiz takrorlash va o‘z-o‘zini nazorat qilish imkoniyatini yaratadi

Og‘zaki nutqda odam ko‘pincha darhol fikr bildirishga harakat qiladi va xatolarini sezmay qoladi. Biroq yozma nutqda u o‘z vaqtida to‘xtab, matnni qayta ko‘rib chiqishi, tahrirlashi, xatolarni topib tuzatishi, jummalarni aniqroq shaklga keltirishi mumkin. Bu esa o‘z-o‘zini nazorat qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. O‘quvchi vaqt o‘tib o‘z eski matnlarini o‘qib, o‘zining rivojlanish bosqichlarini ko‘rishi ham mumkin.

Yozma nutq xatolarni tekshirish imkonini beradi.

Misollar :

- *Après avoir écrit mon texte, je vérifie l’accord du verbe avec le sujet.*
- *Je relis mon paragraphe pour corriger les fautes d’orthographe.*
- *Je compare mes phrases avec celles du manuel pour améliorer la structure.*

6. Tilni amaliy qo‘llashda keng imkoniyatlar yaratadi

Bugungi globallashuv davrida chet tilida yozma muloqot kundalik hayotning ajralmas qismiga aylandi. Elektron pochta orqali yozish, ariza, rezyume, referat yoki ilmiy maqola tayyorlash, ijtimoiy tarmoqlarda fikr almashish – bularning barchasi sifatli yozma nutqni talab qiladi. Shuning uchun yozma ko‘nikmani rivojlantirish til egasiga nafaqat ta‘lim jarayonida, balki professional faoliyatda ham qo‘l keladi.

Chet tilida yozish kundalik hayotda zarur hisoblanadi.

Misollar :

- **Email yozish :**

Bonjour Madame, je voudrais demander des informations concernant le cours de français.

- **Ariza yoki so‘rov :**

Je souhaite m'inscrire au cours du soir.

- **Ijtimoiy tarmoqdagi fikr :**

Aujourd'hui, j'ai appris trois nouvelles expressions en français !

7. Imtihon va baholash jarayonlarida asosiy o‘rin tutadi

Xalqaro yoki milliy til imtihonlarining deyarli barchasida (DELF, DALF, IELTS, TOEFL, CEFR darajalari va boshqalar) yozma topshiriqlar muhim o‘rin egallaydi. Matn yozish, insho tuzish, fikrni asoslash, taqqoslash, tavsif berish kabi topshiriqlar o‘quvchining tilni qay darajada egallaganini real baholash imkonini beradi. Yozma ko‘nikmasi yetarli bo‘lmagan o‘rganuvchi yuqori ball olishda qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy.

DELF/TEF/IELTS kabi imtihonlarda yozma topshiriqlar asosiy rol o‘ynaydi.

Misollar :

- **DELF A2 tipi :**

Vous écrivez un message à votre ami pour l'inviter à votre anniversaire.

- **DELF B1 uchun argumentatsiya :**

Selon moi, écrire régulièrement est essentiel pour apprendre une langue, car cela aide à mémoriser et à organiser les idées.

- **Tavsif yozish :**

Ma ville est calme, agréable et pleine d'espaces verts. J'aime y vivre parce que tout est proche.

8. Til o‘rganishga motivatsiyani oshiradi

Yozma nutq – bu yaratuvchanlik jarayoni. O‘z fikrini yangi tilda ifodalash, matn yaratish va uni chiroyli shakllantirish o‘quvchiga zavq bag‘ishlaydi. Bu esa motivatsiyaning oshishiga, til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning yanada kuchayishiga xizmat qiladi. O‘quvchi o‘zining har bir yangi matni orqali natijasini ko‘ra olgani sababli, o‘qish jarayoni yanada mazmunli bo‘ladi.

Yozish jarayoni o‘rganuvchiga zavq beradi.

Misollar :

- *J'écris un journal en français et je vois mes progrès chaque semaine.*
- *C'est motivant de créer un texte et de pouvoir l'améliorer.*
- *Quand je relis mes anciens écrits, je remarque que mon niveau s'est beaucoup amélioré.*

Xulosa qilib aytganda, chet tilini o‘rganishda yozma nutqni rivojlantirish – murakkab, ammo nihoyatda samarali jarayon. U grammatikani mustahkamlaydi, lug‘at boyligini kengaytiradi, mantiqiy fikrlashni shakllantiradi va tilni ongli ravishda egallashga yordam beradi. Yozma nutq o‘rganuvchining umumiy til kompetensiyasini yuqori pog‘onaga ko‘taradi hamda imtihonlarda, ta’limda va kasbiy faoliyatda muhim afzalliklar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. M.Steffens. Réemploi lexical et production écrite en FLE. 2020
2. Jean- Pierre Cuq& Isabelle Gruca.Cours de didactique du français langue étrangère et seconde.2017.
3. Mourlhon-Dallies, F. *Enseigner l’expression écrite*.2008.
4. Métrich, R. & Faucher, E. *Lexique, grammaire et production écrite*.1994.
5. Dolz,Abouzaïd,Marmy Cusin.Grammaire, lexique et orthographe pour enseigner la production écrite.2018.